


Gulbadan.

Taniqli ingliz adibasi Margaret Rumer Godenning nomi (1907-1998) shoira, jurnalist va tarixiy asarlar muallifi sifatida Buyuk Britaniya va Hindiston adabiy jamoatchiligi orasida yaxshi ma'lum. Uning turli mavzudagi oltmishdan ortiq kitoblari nashr etilgan.

«Gulbadan» asari 1980-yili yaratilgan bo'lib, buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning oqila qizi, temuriy malika, muarrix Gulbadan begimning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni muallif qiziqarli ilmiy-publitsistik yo'sinda hikoya qiladi.

Muallif Hindistonda uch yarim asrdan ziyod vaqt hukm surgan boburiylar saltanatining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan, noyob iste'dod va aql-zakovat sohibasi Gulbadan begim shaxsiyatini o'sha davrning murakkab va dolg'ali tarixiy voqealari, toj-u taxt kurashlari, inson ruhining poyonsiz g'alayonlari bilan uzviy bog'liq holda, o'ziga xos talqin va mahorat bilan aks ettiradi.



Gulbadan begim o'z shaxsiyati haqida so'z yuritganda oqilalik bilan o'zini «bu haqir», ya'ni «bu ojiz banda» deb atardi. Aslida esa u nafaqat oddiy banda, balki Hindistondagi buyuk boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh G'oziyning kenja qizi edi. U ertaklarda uchraydigan afsonaviy qahramonlarga xos nafis ism — Gulbadan degan go'zal bir nom bilan atalardi. Umrining to'fonli va shiddatli damlarida ham u o'zining «Gulbadan»ligini saqlab qola olgan mo'tabar bir inson edi.

U 1522-yoki 1523-yilda Qobulda tavallud topgan. U zamonlarda Sharqda qiz bolalarning (hatto u aslzodalardan bo'lsa ham) tug'ilgan sanasini qayd etish joiz emas edi. Bordi-yu falakning gardishi bir aylanib, u Londonda tavallud topganida, Lining qiroli Genrix VIII bo'lgan bo'lur edi. Ma'lumki, Genrix VIII Gulbadanning otasi Boburshoh singari «e'tiqod himoyachisi» unvoniga sazovor bo'lgan iymon-e'tiqodli hukmdor edi.

Gulbadan iymoni butun, taqvodor musulima edi.

Gulbadan uch buyuk hukmdor — otasi Boburshoh, akasi Humoyunshoh va jiyani Akbarshoh davrini qamrab olgan o'ta murakkab zamonda umrguzaronlik qildi va Akbarshoh vafotidan ikki yil avval bu foniyl dunyoni tark etdi. Bu hukmdorlar orasida eng mashhuri Akbarshoh bo'lsa-da, Gulbadan otasi va akasini nihoyatda ulug'lar edi. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, agar Akbarshoh bo'lmaganda, Gulbadanning mavqe-martabasi bunchalar yuqori ulug'lanmagan, uning nomi o'sha davrda yashagan yuzlab malikalar singari parda ortida, omma nazariga tushmasdan qolib ketgan bo'lardi. Va tabiiyki, uning umr va ijod yo'li haqidagi haqiqatni ochib berish ham hech kimning xayoliga kelmasdi. O'sha davr muarrixlari tomonidan zikr etilgan ma'lumotlarda Gulbadanning ismi boshqa tarixiy shaxslarning nomlari soyasida qolib ketayotgan bir paytda (1587-1590 yillarda) Akbarshoh bobosi Boburshoh va otasi Humoyunshohning hukmdorlik faoliyati haqida tarixiy bir asar yaratish haqida farmoni oliyl qabul qildi.

Gulbadan benginining ushbu asarida asosan tarixiy shaxslarning xususiyatlarini tasvirlashga ko'proq o'rin berilgan. Biroq asarda keltirilgan ba'zi bir sana va voqealar bayonida juz'iy chalkashliklar ham uchraydi. Masalan, muallif Boburshohning 18 nafar o'g'il-qizi bo'lgani haqida so'z yuritadi, biroq ularni nomma-nom sanaganda 16 ta farzand nomi tilga olinadi.

Shuni aytish kerakki, bu asar faqat uch nusxada ko'chirilgan. U paytlarda bosmaxonalar bo'lmagan va Boyazid devonxonasida to'qqizta xattot bo'lib, ular tomonidan ko'chirilgan uch nusxaning bir nusxasigina saqlangan, qolganlari esa, afsuski, bundan uch yuz yil muqaddam yo'qolib ketgan.

Gulbadanning nurli qalami bilan tasvirlangan xotiranoma uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqealarni shunchalik aniq va haqqoniy tarzda bayon qiladiki, o'quvchi go'yoki teleskopga tikilib, ko'hna tarix sahnalarini yaqqol tasavvur etadi. Olis o'tmish qa'rida podshoh otasining Qobuldagi saroyining ulkan devorlari ustidan pastga tikilib turgan kichik malikani ko'rgandek bo'lasiz. Muallif shahar qal'asi devori ustidan turib navbatdagi raqibiga qarshi jangga shaylanayotgan yoki erishgan g'alabasini nishonlayotgan sarbozlarni kuzatib turgan ayollarning ichki dunyosini mahorat bilan tasvirlab beradi. Shahar atrofidagi bog'larda osudalik hukm surayotgani, vohaning qorli tog'lari uzra osmonga ko'tarilayotgan chang bulutiga ko'z tikib turgan kichik malika qiyofasi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Osmon uzra ko'tarilayotgan chang esa u orziqib kutayotgan podshoh otasidan xabar yetkazuvchi choparning yaqinlashib kelayotganidan dalolat beradi.

Muallif, taxminan 2-3 yoshida ekan, otasi Bobur podshohni a'yonlari, amir va beklari, yalovbardorlari va navkarlari bilan navbatdagi harbiyl yurishga o'tlanayotgan holda ko'rganini eslaydi...

Bobur bunyod etgan davlat, garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o'lkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Chingizxon ham, Amir Temur ham davlat tepasiga Bobur kabi 12 yoshlik paytida kelmagan, u ko'rgan azob-uqubat, yo'qchilik, bemorlik va mushkulotlarni boshdan kechirmagan.

Afg'onistondagi qadimiy shaharlardan bo'lmish Qobul hukmdori temuriy shahzodalarning so'nggi sulolasiga mansub bo'lib, Boburning amakilaridan biri edi. Yaqindagina vafot etgan bu hukmdordan, keyin shahar taxt uchun kurashayotgan vorislar o'rtasida talonda qolgan edi. Bu hol Bobur uchun qulay imkoniyat tug'dirardi-yu, biroq u hali olisdagi umid yulduzi edi, xolos. Yaqin kishilari va chog'roq qo'shini bilan Bobur o'z baxtini sinab ko'rish uchun Hindikushning kimsasiz yaydoq cho'llari-yu o'tkir tik qoyalari va tog' tizmalari osha kecha-yu kunduz tin olmay yo'l bosdi. Va nihoyat, bir kuni tunda dovonlardan birining tepasida turib, ilgari hech ko'rmagan manzaraga duch keldi: «Suxayl yulduzi g'ayritabiiy bir tarzda charaqlab yog'du sochib turarli. «...dedimkim, Suxayl bo'lmag'an. Dedimkim, Suxayldur. Shunda navkarlardin biri shunday xitob qildi: «O, Suxayl, sening yog'dularing sochilgan kishiga omad keltirursen».